O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

O‘ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA METAFORALARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

COMMUNICATIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF METAPHORS IN UZBEK DIPLOMATIC DISCOURSE

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/GCHM1066

Nazarov Qobilbek Narzulla o‘g‘li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o‘qituvchisi
qobil.nazarov.1995@mail.ru

Annotation. *This article examines the communicative and pragmatic features of metaphors used in Uzbek diplomatic discourse. It explores the functions of metaphor in diplomatic communication as a means of creating imagery and expressiveness, conceptualizing political content, explaining complex international relations in accessible terms, conveying particular positions indirectly, and influencing the addressee. The article also examines the role of metaphors in representing interstate relations, conceptualizing cooperation and partnership, framing ideas of peace and stability, expressing attitudes toward challenging political situations, and articulating diplomatic positions in a mitigated manner.*

Keywords: *diplomatic discourse, political discourse, metaphor, conceptual metaphor, communicative and pragmatic features, pragmatic function, diplomatic communication.*

Bugungi globallashuv va xalqaro integratsiya jarayonlarida davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning izchil rivojlanishi diplomatik munosabatning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Davlatlararo munosabatlarda diplomatik nutq nafaqat axborot almashish, balki muayyan siyosiy pozitsiyani ifodalash, manfaatlarni himoya qilish, hamkorlikka undash, xalqaro jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish va turli siyosiy vaziyatlarni yumshatish kabi ko‘plab kommunikativ vazifalarni bajaradi. Shu jihatdan diplomatik diskurs tilning funksional imkoniyatlari, xususan, uning pragmatik va ta’sirchanlik xususiyatlari namoyon bo‘ladigan muhim kommunikativ vositalardan biridir.

Diplomatik muloqotda fikrni bevosita va keskin shaklda ifodalash har doim ham maqsadga muvofiq bo‘lavermaydi. Xalqaro munosabatlarda siyosiy pozitsiyani ehtiyotkorlik bilan ifodalash, muayyan fikrni bilvosita yetkazish, qarama-qarshi tomon manfaatlarini hisobga olish va kommunikativ muvozanatni

saqlash zarurati diplomatik tilning o‘ziga xos vositalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ana shunday vositalardan biri metaforadir. Metafora an’anaviy ravishda badiiy-estetik vosita sifatida talqin qilingan bo‘lsa-da, zamonaviy kognitiv va pragmatik tilshunoslikda u inson tafakkuri, konseptuallashtirish jarayoni hamda kommunikativ faoliyat bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida qaralmoqda.

Ayniqsa, siyosiy va diplomatik diskursda metafora murakkab siyosiy jarayonlar, davlatlararo munosabatlar, hamkorlik, raqobat, xavfsizlik, tinchlik va nizolarni konseptual jihatdan ifodalashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Metaforik birliklar orqali abstrakt siyosiy hodisalar inson tajribasiga yaqin bo‘lgan obrazlar asosida tushuntiriladi. Natijada siyosiy voqelik muayyan konseptual model asosida talqin qilinib, adresat ongida ma’lum tasavvur va baholash munosabati shakllantiriladi. Shu sababli diplomatik diskursdagi metaforani faqat stilistik hodisa sifatida emas, balki muayyan kommunikativ strategiya va pragmatik maqsadni amalga oshiruvchi til vositasi sifatida o‘rganish muhimdir.

Metaforaning kommunikativ-pragmatik xususiyati, avvalo, uning nutq subyektining kommunikativ niyatini amalga oshirishdagi imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi. Diplomatik diskursda metafora siyosiy pozitsiyani yumshatish, muayyan hodisaga baho berish, adresatni ishontirish, hamkorlikka undash, siyosiy qarashlarni legitimlashtirish, ijobiy yoki salbiy munosabatni bilvosita ifodalash kabi pragmatik vazifalarni bajarishi mumkin. Masalan, davlatlararo munosabatlarni *“ko‘prik”, “yo‘l”, “aloqalarini kengaytirish”, “ma’naviy ko‘prik” “ko‘p qirrali munosabat”* kabi konseptual obrazlar orqali ifodalash o‘zaro yaqinlik va hamkorlik g‘oyasini kuchaytirsa, *“inqiroz”, “to‘siq”, “keskinlik”, “burilish nuqtasi”* kabi metaforik modellar siyosiy vaziyatning murakkabligi yoki o‘zgaruvchanligini konseptual jihatdan aks ettiradi.

O‘zbek tilshunosligida metafora, siyosiy diskurs, nutqiy ta’sir va kommunikativ-pragmatik hodisalar bo‘yicha muayyan tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, o‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning aynan kommunikativ va pragmatik vazifalarini tizimli ravishda tadqiq etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, O‘zbekistonning xalqaro munosabatlar tizimidagi faolligi, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan diplomatik aloqalarining kengayib borayotgani mamlakat diplomatik diskursini lingvistik jihatdan tadqiq etish uchun yangi material va imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini o‘rganish diplomatik til, konseptual metafora va xushmuomalalik

nazariyalarini o‘zaro bog‘liq holda qo‘llashni talab etadi. Diplomatik diskurs davlatlararo munosabatlarda siyosiy pozitsiyani ifodalash, manfaatlarni muvofiqlashtirish va muloqotni davom ettirishga xizmat qiladigan nutqiy faoliyat sifatida qaraladi. S. Nik tilni diplomatik faoliyatning mohiyatini belgilovchi omil sifatida baholaydi [Nik, 2001, 39]. Ushbu yondashuv diplomatik ifodalarni ularning axborot mazmuni bilan birga, qo‘llanish vaziyati va ko‘zlangan maqsadi asosida o‘rganishga imkon beradi. Shu nuqtayi nazardan, rasmiylik, ehtiyotkorlik, murosaga intilish va adresatga moslashish metaforik birliklarni tahlil qilishda muhim mezonlardir.

Tadqiqotning kognitiv asosini G. Lakof va M. Jonsonning konseptual metafora nazariyasi tashkil etadi. Olimlar metaforaning kundalik tafakkur va faoliyatda keng ishtirok etishini ta’kidlab, uning mohiyatini bir turdagi hodisani boshqa turdagi hodisa orqali tushunish bilan izohlaydilar [Lakof, 2003, 3-5]. Mazkur yondashuvda manba sohasi maqsad sohasini anglash uchun konseptual asos vazifasini bajaradi. Diplomatik munosabatlarning *yo‘l, bino* yoki *ko‘prik* orqali tasvirlanishi ushbu mexanizm asosida tahlil qilinishi mumkin. Masalan, tahliliy namuna sifatidagi “hamkorlik poydevori” birikmasida BINO manba sohasi HAMKORLIK maqsad sohasini tuzilish va mustahkamlik belgilariga ko‘ra anglashga xizmat qiladi. Lakof va Jonson metaforik tuzilish hodisaning ayrim jihatlarini ajratib ko‘rsatishi, boshqalarini esa e’tibordan chetda qoldirishi mumkinligini ham qayd etadilar [Lakof, 2003, 10-13]. Demak, metafora tanlovi siyosiy munosabatlarning qaysi jihati ta’kidlanishini o‘rganishda ahamiyatlidir.

Metaforalarning pragmatik talqinida P. Braun va S. Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Mualliflar “yuz” (*face*) tushunchasini shaxsning muloqotda saqlashga intiladigan ijtimoiy o‘zlik obrazi sifatida izohlaydilar. Uning ijobiy tomoni ma’qullanish istagini, salbiy tomoni esa erkin harakat qilish va bosimdan xoli bo‘lish ehtiyojini ifodalaydi [Braun, 1987, 61-62]. Ushbu nazariyani diplomatik diskursga tatbiq etish metaforalar vositasida hamkorni qadrlash, kelishmovchilikni yumshatish va taklifni ehtiyotkor yetkazish imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi. Bunda metaforaning mavjudligi o‘z-o‘zidan xushmuomalalikni anglatmaydi: uning vazifasi so‘zlovchi niyati, adresat, nutq vaziyati va atrofdagi matn asosida aniqlanishi lozim.

Ko‘rib chiqilgan yondashuvlar metaforaning konseptual tuzilishi bilan kommunikativ vazifasini birgalikda o‘rganishga nazariy asos yaratadi. Mazkur maqolada ushbu nazariyalar o‘zbek diplomatik matnlaridagi metaforalarni tahlil

qilishga tatbiq etiladi. Tadqiqotning diqqat markazida metaforik model, nutqiy maqsad va pragmatik funksiya o‘rtasidagi bog‘liqlik turadi. Xususan, metaforalarning hamkorlikni ta’kidlash, ijobiy munosabat shakllantirish va diplomatik pozitsiyani ehtiyotkor ifodalashdagi imkoniyatlari aniq kontekstlar asosida o‘rganiladi.

HAMKORLIK–YO‘L modeli. O‘zbekiston va Ozarbayjon prezidentlarining 2022-yil 21-iyundagi muzokaralari yakuniga bag‘ishlangan rasmiy axborotda Shavkat Mirziyoyevning quyidagi bahosi keltiriladi: “Ozarbayjon Prezidentining tarixiy ahamiyatga ega davlat tashrifi oldinga tashlangan ulkan qadamdir” [4]. Mazkur fikr hamkorlik yo‘nalishlari belgilangan va ikki tomonlama hujjatlar imzolangan vaziyatda bildirilgan.

Ushbu kontekstda hamkorlikning rivojlanishi maqsad sari harakat sifatida konseptuallashtiriladi. Davlat tashrifi qadamga, munosabatlarning takomillashuvi esa oldinga siljishga muvofiqlashtirian. Harakatning yo‘nalishini bildiruvchi birlik ijobiy o‘zgarishni, uning ko‘lamini ifodalovchi sifat esa tashrifning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bizning talqinimizcha, metafora muzokaralar natijasini umumlashtirish va uni kelgusi hamkorlikning davomiy jarayoniga joylashtirish vazifasini bajaradi. Shu sababli modelni yanada aniqroq HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH– MAQSAD SARI HARAKAT shaklida ifodalash mumkin.

MUNOSABATLAR–BINO modeli. Prezidentning rasmiy saytida 2022-yil 22-iyunda e’lon qilingan, O‘zbekiston va Ozarbayjon rahbarlarining Xivaga tashrifiga bag‘ishlangan materialda tarixiy aloqalar bugungi sheriklikning asosi sifatida talqin etiladi. Xabarda “bugungi ko‘p qirrali hamkorlik uchun mustahkam poydevor” birikmasi qo‘llangan [5]. Kontekstda xalqlar o‘rtasidagi uzoq yillik madaniy yaqinlik bilan hozirgi diplomatik munosabatlar o‘zaro bog‘lanadi.

Bu yerda qurilishga oid tushuncha davlatlararo munosabatlar sohasiga ko‘chirilgan: tarixiy-madaniy aloqalar binoning tayanch qismiga, zamonaviy hamkorlik esa shu asosda rivojlanadigan tuzilmaga mos keladi. Binoning barqarorligi uning asosiga bog‘liqligi haqidagi kundalik bilim diplomatik sheriklikning ishonchliligini tushuntirishga xizmat qiladi. Pragmatik jihatdan bunday ifoda hozirgi siyosiy yaqinlashuvni tarixiy davomiylik bilan asoslash imkonini beradi. Natijada hamkorlik vaqtinchalik manfaatlar doirasidan kengroq, avlodlararo aloqalarga tayanuvchi munosabat sifatida taqdim etiladi.

XALQLARNI BOG‘LOVCHI IJTIMOIY VOSITA–KO‘PRIK modeli. O‘zAning 2026-yil 14-sentabrda O‘zbekiston va Koreya Respublikasi prezidentlari muzokaralari haqida e’lon qilgan xabarida koreys diasporasi ikki

mamlakat va xalq o‘rtasidagi “ma’naviy ko‘prik” sifatida tavsiflanadi [6]. Bu baho madaniy almashinuv, ta’lim va gumanitar aloqalarni rivojlantirish masalalari muhokamasida berilgan.

Ko‘prikning ikki tomonni birlashtirish xususiyati diasporaning madaniyatlararo yaqinlikni ta’minlashdagi roliga ko‘chirilgan. Bu kontekstda bevosita muloqotning o‘zi emas, uni ta’minlovchi ijtimoiy guruh metaforalashtirilgan. Shuning uchun misolni umumiy MULOQOT–KO‘PRIK modelining aniqlashtirilgan ko‘rinishi sifatida baholash maqsadga muvofiq. Kommunikativ jihatdan metafora diasporaning ikki tomonlama munosabatlardagi ahamiyatini e’tirof etadi. Pragmatik talqinda esa u mushtaraklikni ta’kidlash, hamkor xalqqa hurmat bildirish va gumanitar yaqinlikni siyosiy hamkorlikning muhim omili sifatida ko‘rsatishga xizmat qiladi.

TARAQQIYOT–HARAKAT modeli. Tashqi ishlar vazirligining 2026-yil 19-avgustdagi O‘zbekiston–Ozarbayjon siyosiy maslahatlashuvlari haqidagi xabarida “hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish” zarurligi qayd etilgan [7]. Xabarda ushbu vazifa sanoat loyihalari, savdo hajmi va boshqa amaliy hamkorlik yo‘nalishlari bilan bog‘langan.

Mazkur ifodada munosabatlarning sifat o‘zgarishi makondagi harakat orqali anglatilgan. Hamkorlik harakatlantiriladigan obyekt, uning istiqboldagi holati esa erishilishi kerak bo‘lgan bosqich sifatida tasvirlanadi. Modelda HARAKAT sxemasi bilan birga darajalar bo‘yicha rivojlanish tasavvuri ham ishtirok etadi. Kontekstga ko‘ra, metafora hali amalga oshmagan maqsadni ifodalaydi. Uning pragmatik vazifasi mavjud munosabatlarni ijobiy baholagan holda, tomonlarni qo‘shimcha amaliy faoliyatga yo‘naltirishdir. Shu jihatdan bu misol natijani baholovchi qadam metaforasidan istiqboldagi vazifani belgilashi bilan farqlanadi.

MUAMMO–TO‘SIQ modeli. Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 13-oktabrda MDH Davlat rahbarlari kengashi majlisida so‘zlagan nutqida erkin savdo zonasini shakllantirish jarayoniga nisbatan “yo‘lida hali ham ko‘plab to‘siqlar” ifodasi ishlatilgan [8]. Nutqda savdo o‘sishining sekinlashishi qayd etilib, undan so‘ng shartnoma qoidalarini qayta ko‘rib chiqish va iqtisodiy hamkorlikni yengillashtirishga doir takliflar beriladi.

Bu misolda iqtisodiy integratsiya maqsad sari harakatga, uni qiyinlashtirayotgan omillar esa harakatni cheklovchi jismoniy g‘ovlarga muvofiqlashtirilgan. Metafora muammolarni yengish mumkin bo‘lgan holatlar sifatida anglashga imkon beradi. Bizning talqinimizcha, uning diplomatik vazifasi muammoli vaziyatni ochiq ko‘rsatish bilan birga, muhokamani birgalikda yechim

izlashga yo‘naltirishdan iborat. Muayyan tomonning aybi alohida ta’kidlanmagani tanqidning shaxsiylashtirilishini kamaytiradi. Biroq bunday yumshatish xususiyati metaforaning o‘zidan emas, uning takliflar bilan birga kelgan kontekstidan kelib chiqadi.

Tanlangan misollarda konseptual modellar turli kommunikativ vazifalar bilan bog‘langan: yo‘l modeli erishilgan natijani baholashga, bino modeli hamkorlikning tarixiy asoslarini ta’kidlashga, ko‘prik modeli xalqlararo yaqinlikni ifodalashga xizmat qiladi. Harakat modeli istiqboldagi vazifalarni belgilasa, to‘siq modeli muammoni yechim talab qiladigan holat sifatida taqdim etadi. Ushbu kuzatishlar tanlangan kontekstlarga taalluqli bo‘lib, modellarning butun o‘zbek diplomatik diskursidagi uchrash chastotasi haqida xulosa chiqarish uchun kengroq korpus tahlili zarur.

ADABIYOTLAR

1.Nick S. Use of Language in Diplomacy // Language and Diplomacy / Ed. by J. Kurbalija, H. Slavik. – Malta: DiploProjects, Mediterranean Academy of Diplomatic Studies, University of Malta, 2001. – P. 39–47.

2.Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: The University of Chicago Press, 2003. – 276 p.

3.Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Prezidentlar hamkorlikning muhim yo‘nalishlarini belgilab oldilar. – 21.06.2022.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Munosabatlarning shonli tarixi bugungi hamkorlik uchun mustahkam poydevor. – 22.06.2022.

6.O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi Prezidentlari alohida strategik sheriklikni yangi bosqichga olib chiqishga tayyorligini tasdiqladilar. – 14.09.2026.

7.O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. TIVda O‘zbekiston va Ozarbayjon siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi davrasi bo‘lib o‘tdi. – 19.08.2026.

8.Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. – 13.10.2023.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**